Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

Zarafshon

2026-yil 21-avgust, juma,
73 (24.253)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz info@zarnews.uz

O‘zbek xalq maqoli

Bilimli mingni yiqar

MUSTAQILLIK 35

YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO‘LIB, YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!

Муносабат



ИШОНЧДАН НАТИЖА САРИ

Тадбиркор учун давлат раҳбари билан очиқ мулоқот оддий йиғилиш эмас. Бу - биз ҳар куни дуч келадиган муаммоларни тўғридан-тўғри айтиш, уларга муносабат билдирилишини эшитиш ва энг муҳими, эртанги иш фаолиятимиз учун қандай муҳит яратилаётганини англаш имкониятидир.

18 август куни Президент Шавкат Мирзиёевнинг тадбиркорлар билан олтинчи очиқ мулоқоти бўлиб ўтди. Унда қарийб 500 нафар тадбиркор бевосита, яна 25 мингга яқин бизнес вакили ҳудудлардаги студиялар орқали иштирок этди. Бу рақамларнинг ўзиёқ тадбиркорлик масаласи энди тор доирадаги иқтисодий мавзу эмас, балки бутун жамият тараққиётига дахлдор масалага айланганини кўрсатади.

Мен тадбиркор сифатида бу йилги мулоқотнинг энг муҳим жиҳатини битта тушунча билан ифодалаган бўлардим: ишончни янада мустаҳкамлаш.

Чунки сўнгги йилларда тадбиркорлик муҳитида сезиларли ўзгаришлар бўлди. Илк очиқ мулоқот 2021 йилда ўтказилганида давлат ва бизнес ўртасида тўғридан-тўғри мулоқотнинг ўзи катта янгилик эди. Бугун эса бу мулоқот анъанага айланиб, тадбиркорларнинг таклифлари қонунчилик ва амалий қарорларга айланиб бормоқда. 2025 йилги мулоқотга тайёргарлик жараёнининг ўзида 26 та соҳанинг қарийб 7 минг нафар вакили билан учрашувлар ўтказилиб, колл-марказ орқали 13 мингдан зиёд мурожаат ва ташаббус қабул қилинган эди. Илк мулоқотдан буён эса мингга яқин тадбиркорлик ташаббуси қонунчиликка киритилди.

Бу - муҳим натижа. Аммо тадбиркор учун ҳар қандай ислоҳотнинг ҳақиқий баҳоси битта савол билан ўлчанади: у менинг даромадимни қанчалик кўпайтиради, ишлашимни қанчалик енгиллаштиради?

2026 йилги мулоқотда айнан шу саволга жавоб берадиган бир қатор ташаббуслар илгари сурилди.

Аввало, назорат ва текширувлар масаласига жиддий эътибор қаратилгани қувонарли. Кичик бизнес субъектларида инсон ҳаёти, соғлиғи ёки бошқа тадбиркорлар манфаатига бевосита хавф туғдирмайдиган текширувларга уч йиллик мораторий эълон қилиниши - тадбиркорлик муҳити учун муҳим қадам. Чунки бизнесни ривожлантириш учун маблағ ва бозор билан бир қаторда барқарорлик ҳам керак. Тадбиркор эртага қайси текширув, қайси талаб ёки қайси маъмурий тўсиққа дуч келишини билмаса, узоқ муддатли режа тузиши қийин.

Ишлаб чиқариш билан шуғулланадиган тадбиркорлар учун электр ва газ масаласи эса жуда амалий аҳамиятга эга. Тўлов интизомини бузмаган, тегишли ҳисобга олиш тизимларига уланган корхоналар учун олдиндан тўловни 100 фоиздан 15 фоизга тушириш айланма маблағларнинг "музлаб қолиши"ни камайтириши мумкин. Бу қоғоздаги имтиёз эмас, корхонанинг ҳар кунги молиявий айланмасига бевосита таъсир қиладиган қарор.

Умуман, жорий йилги мулоқотнинг ўзига хос жиҳати тадбиркорликнинг янги босқичи ҳақида гап кетганида бўлди, дейиш мумкин. Яъни, биз энди "бизнесни бошлаш" босқичидан "капитални кўпайтириш" босқичига ўтяпмиз. Чунки илгари фақат тирикчилик ёки кун кўриш учун кичик дўкон ёки цех очиш ҳақида ўйлаган бўлсак, бугунги кунга келиб катта инвестициялар киритиш, ишлаб чиқаришни кенгайтириш ва ташқи бозорда муносиб ўрин эгаллаш ҳақида ўйлаяпмиз.

Шу маънода Хоразмдаги учрашувда мени жуда қувонтирган яна бир жиҳат замонавий технологиялар ва сунъий интеллект масаласи бўлди. Ҳар бир соҳа жадал ривожланиб бораётган бир даврда биз ҳам замондан орқада қолмаслигимиз керак. Давлатимиз раҳбари "10 минг корхона учун сунъий интеллект ҳамкор" деб номланган янги дастур бошланишини эълон қилди. Унга кўра, корхоналарга сунъий интеллектни жорий қилиш харажатининг роппа-роса ярми - 30 минг долларгача бўлган қисми қоплаб берилиши айтилди. Бу ўз корхонасини модернизация қилмоқчи бўлган, лекин маблағ ёки тажриба жиҳатидан иккиланиб турган тадбиркорлар учун жуда катта туртки бўлди.

Экспортчилар учун "Экспорт навигатор" тизими, хорижий бренд мутахассисларини жалб қилиш харажатларининг бир қисмини қоплаш, маркетплейслар ва халқаро тендерларда иштирок этишни қўллаб-қувватлаш каби чоралар ҳам эътиборга лойиқ. Чунки бугунги тадбиркор учун ички бозорнинг ўзи етарли эмас. Биз нафақат маҳсулот ишлаб чиқаришни, балки уни дунё бозорида сотишни ҳам ўрганишимиз керак.

Шунингдек, тадбиркорларнинг фаолиятига халақит бераётган яна бир оғриқли нуқтага барҳам берилаётгани барчамизни қувонтирди.

Менимча, 2026 йилги мулоқотнинг энг катта аҳамияти ҳам шунда. Давлат тадбиркорга "сенга имконият яратаман" демоқда. Энди тадбиркорнинг вазифаси — бу имкониятдан самарали фойдаланиш, янги иш ўринлари яратиш, сифатли маҳсулот ишлаб чиқариш, экспортни ошириш ва солиқларни виждонан тўлаш.

Зеро, тадбиркорлик фақат тадбиркорнинг шахсий манфаати эмас. Битта янги корхона ортида янги иш ўринлари, оилалар даромади, маҳалланинг иқтисодий фаоллиги, бюджетга тушум ва мамлакатнинг экспорт салоҳияти бор.

Шу маънода, очиқ мулоқотларнинг ҳақиқий натижаси минбарда айтилган гаплар билан эмас, эртаси куни корхона эшигидан кирган тадбиркорнинг ўз ишида сезган ўзгариши билан ўлчанади.

Бугун бизда ишонч бор. Энди бу ишончни натижага айлантириш давлат билан бир қаторда, тадбиркорларнинг ҳам масъулияти. 2026 йилги мулоқотдан кейинги энг катта вазифа эса аниқ: яратилган имкониятларни реал ишлаб чиқариш, янги бозорлар, янги иш ўринлари ва янги қийматга айлантириш. Шундагина "тадбиркорликни янги босқичга олиб чиқиш" деган мақсад қоғоздаги шиор эмас, ҳар бир оила ва ҳар бир ҳудуд ҳаётида сезиладиган иқтисодий натижага айланади.

Шавкат ШАРИПОВ,
Самарқанд шаҳар "Шарқ-саноат" концерни таъсисчиси,
Олий Мажлис Сенати аъзоси.

Payshanba – yoshlar kuni

Viloyat rahbarlari urgutlik yoshlarni eshitdi





Viloyat hokimi A.Boboyev va sektor rahbarlari kecha yoshlar kuni doirasida Urgut tumanida yoshlar bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Ochiq va samimiy ruhda kechgan muloqot davomida viloyat rahbari yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar, davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlarga to‘xtalib, ulardan samarali foydalanayotgan yigit-qizlar jamiyatda o‘z munosib o‘rnini topib, yuqori natijalarga erishayotganini ta’kidladi.

Uchrashuvda ko‘proq yoshlarning fikrlari tinglanib, ularni qiynayotgan masalalar, muammolar o‘rtaga tashlandi. Jumladan, ishga joylashish, tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, o‘quv markazi va sport maskanlari tashkil etish, ta’lim muassasalari va mahallalarda qo‘shimcha qulayliklar yaratish bilan bog‘liq murojaatlar qayd etilib, ularni hal etish yuzasidan mas’ullar belgilandi.

Uchrashuvda yoshlarga kitob va boshqa o‘quv qurollari sovg‘a qilindi.

SIFATLI TA’LIM — YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORI



Bugun ta’lim haqida gapirganda, uni faqat maktab, dars, darslik yoki imtihon doirasida tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ta’lim — mamlakatning ertangi qiyofasini belgilaydigan, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning poydevorini yaratadigan strategik soha. Zero, bugun maktab ostonasida turgan bola ertaga muhandis, shifokor, o‘qituvchi, tadbirkor, olim yoki davlat boshqaruvchisi bo‘ladi. Uning bugun olgan bilimi, shakllangan dunyoqarashi, Vatanga munosabati va hayotda o‘z o‘rnini topishi mamlakat kelajagiga bevosita ta’sir qiladi.

Shu ma’noda Yangi O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi ham aniq — **zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mustaqil fikrlaydigan, raqobatbardosh, Vatan taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashaydigan avlodni tarbiyalash**.

Viloyatimizda o‘tkazilayotgan beshinchi Ustozlar milliy forumi ham ana shu ezgu maqsadlar atrofida ta’lim sohasida o‘tgan davrda amalga oshirilgan ishlarni sarhisob qilish, mavjud muammolarni ochiq muhokama etish va yangi o‘quv yili vazifalarini belgilab olish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Forumning “Sifatli ta’lim — Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining mustahkam poydevori” degan g‘oyasi esa bugun soha oldida turgan vazifaning mohiyatini ifodalaydi.

(Davomi 2-sahifada) »»

USTOZLAR MILLIY FORUMI

Samarqand shahrida viloyatimiz maktab o‘qituvchilarining beshinchi Ustozlar milliy forumi shu’ba yig‘ilishlari bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishlarda asosiy e’tibor yangi o‘quv yiliga puxta tayyorgarlik ko‘rish, ta’lim sifatini yanada oshirish, ilg‘or pedagogik tajribalarni ommalashtirish hamda ustozlarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga qaratildi.

Ishtirokchilar to‘qqiz yo‘nalishda seminar va amaliy mashg‘ulotlarda qatnashib, ta’lim tizimidagi yangiliklar, zamonaviy yondashuvlar, ilg‘or pedagogik tajribalar hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan fikr almashdilar.

Shuningdek, forum doirasida ishtirokchilar o‘rtasida “Zakovat” intellektual o‘yini tashkil etildi.

Forumning faol ishtirokchilariga sertifikatlar berildi. Intellektual o‘yinlar g‘oliblariga qimmatbaho sovg‘alar topshirildi.



DARSLAR QACHON BOSHLANADI?

Yurtimizda 2026-2027-o‘quv yili ta’lim jarayonlari:

- maktab, akademik litsey va texnikumlar o‘quvchilari uchun — 2-SENTABRdan;

- oliy ta’lim muassasalari 1-bosqich talabalari uchun — 7-SENTABRdan;

- ikkinchi va undan yuqori bosqich talabalari uchun — 14-SENTABRdan boshlanadi.

2025-2026-o‘quv yilida viloyat maktablari bitiruvchilarining qariyb 2 ming nafari milliy, 1,5 ming nafardan ortig‘i xalqaro sertifikatlarga ega bo‘ldi

Zarafshon

SIFATLI TA’LIM — YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

TA’LIMGA E’TIBOR — KELAJAKKA INVESTITSIYA

Bugun viloyatimiz maktabgacha va maktab ta’limi tizimi nihoyatda katta ko‘lamni qamrab olgan. Ayni paytda viloyatda jami **5657 ta ta’lim tashkiloti** faoliyat yuritmoqda. Shundan 1 278 tasi umumiy o‘rta ta’lim maktabi bo‘lib, ular orasida 57 ta nodavlat, 20 ta ixtisoslashtirilgan maktab hamda Prezident maktabi mavjud.

Maktabgacha ta’lim tizimida esa **4303 ta tashkilot** – davlat va nodavlat bog‘chalar, davlat-xususiy sheriklik asosidagi muassasalar, oilaviy bog‘chalar hamda Ilk rivojlanish markazlari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Bu raqamlar ortida yuz minglab bolalar, o‘n minglab pedagoglar, minglab ota-onalar va butun bir avlodning taqdiri turganini anglash qiyin emas.

Bugun viloyatda **281 ming 113 nafar bola maktabgacha ta’lim bilan qamrab olingan**. Qamrov darajasi 68,6 foizni tashkil etmoqda.

E’tiborlisi, bu yo‘nalishda nodavlat sektor imkoniyatlaridan ham samarali foydalanilmoqda. 2025-2026-yillarda 11097 o‘rinli **274 ta oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti** tashkil etilib, ularga 6400 nafar bola qamrab olindi.

Joriy yilning o‘zida yana 12 ta yangi maktabgacha ta’lim tashkiloti ish boshladi. Shu va boshqa quvvatlar hisobiga qo‘shimcha **7500 nafar bolaning** maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishi ta’minlandi.

Demak, ta’lim tizimidagi islohotlarning birinchi bosqichi — bolaning maktabga tayyor holda borishi uchun zarur sharoitlarni yaratishdan boshlanmoqda.

ZAMONAVIY MAKTAB — ZAMONAVIY IMKONIYATLAR MAKONI

Ta’lim sifati, avvalo, o‘quvchi uchun yaratilgan muhit bilan bog‘liq. Shu bois viloyatda ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi binolar qurish, mavjudlarini ta’mirlash ishlariga katta e’tibor qaratilmoqda.

Bu yil viloyatimizda **855,9 milliard so‘m** mablag‘ **evaziga 138 ta maktab va 66 ta bog‘chada** qurilish-ta’mirlash ishlari amalga oshirilmoqda. Bu raqamni faqat sarflangan mablag‘ sifatida emas, bolalar uchun yaratilayotgan imkoniyat sifatida baholash kerak. Chunki zamonaviy ta’lim uchun zamonaviy muhit zarur.

Yorug‘ va shinam sinfxona, laboratoriya, kompyuter xonasi, sport zali, kutubxona, zamonaviy o‘quv jihozlari — bularning har biri ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Biroq bino qanchalik zamonaviy bo‘lmasin, uning ichidagi asosiy kuch — **o‘qituvchi**.

ASOSIY KUCH — PEDAGOG

Viloyatimiz maktablarida ayni paytda **62 ming 556 nafar pedagog** faoliyat yuritmoqda. Ularning 60 ming 571 nafari, ya’ni **97 foizi oliy ma’lumotli** mutaxassislardir. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan ham ijobiy dinamikani ko‘rsatadi.

Pedagogning kasbiy mahoratini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2026-yilning birinchi yarmida **9257 nafar** maktab va bog‘cha rahbari, pedagog va mutaxassis kadrlarning malakasi oshirildi. Shu bilan birga, “Kasbiy rivojlanish kuni” tadbirlariga 12 fan bo‘yicha **11273 nafar yetakchi o‘qituvchi**, “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlariga esa **37 604 nafar pedagog** jalb etildi.

Bu raqamlar zamonaviy o‘qituvchi bir marta diplom olgan va shu bilan kasbiy rivojlanishini yakunlagan mutaxassis emasligini ko‘rsatadi.

Bugungi pedagog doimo o‘rganishi, yangilikka intilishi, axborot texnologiyalaridan foydalanishi, xorijiy tajribani o‘zlashtirishi va eng muhimi, har bir bolaning qobiliyatini ko‘ra bilishi kerak.

NATIJA RAQAMLARDA HAM KO‘RINADI

Ta’limda amalga oshirilayotgan ishlar samarasi o‘quvchilarning natijalarida ham namoyon bo‘lmoqda.

2025–2026-o‘quv yilida viloyatimiz maktab bitiruvchilarining oliy ta’lim muassasalariga kirish ko‘rsatkichi oshdi. **13 ming 499 nafar yoshlar (bitiruvchilarning 26 foizi)** oliy ta’limga qabul qilindi.

Yana bir e’tiborli natija — **2158 nafar bitiruvchi** muddatidan oldin xorijiy oliy ta’lim muassasalariga qabul qilindi. Ularning 1267 nafari IELTS, 891 nafari esa CEFR sertifikatiga ega bo‘ldi.

Bu raqamlar Samarqand yoshlarining dunyo ta’lim maydoniga chiqish imkoniyatlari tobora kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, ta’lim sohasida raqobat ham kuchaymoqda.

Asosiy fan olimpiadasining respublika bosqichida 11-sinf o‘quvchilari **7 ta sovrinli o‘rinni** qo‘lga kiritdi. Matematika, davlat va huquq asoslari hamda o‘zbek tili fanlaridan 3 ta birinchi o‘rin, tarixdan ikkinchi o‘rin va rus tili, tarix hamda ona tili fanlaridan 3 ta uchinchi o‘rin egallandi.

XORIJIY TIL — YANGI IMKONIYATLAR KALITI

Bugungi global dunyoda xorijiy tilni bilish — qo‘shimcha afzallik emas, muvaffaqiyatning zarur sharti.

Shu bois Samarqandda xorijiy tillarni o‘rganishga katta e’tibor berilmoqda.

Viloyatda chet tillar bo‘yicha xorijiy va milliy sertifikatga ega o‘qituvchilar soni **4479 nafarga** yetdi. Shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim maktablariga **131 nafar xorijiy mutaxassis** jalb qilinib, dars mashg‘ulotlari ular ishtirokida tashkil etildi. Endigi vazifa — bu natijani yanada yuqori bosqichga olib chiqish.

Yangi o‘quv yilida **1573 nafar xorijiy til o‘qituvchisining** milliy va xalqaro darajadagi sertifikatlarga ega bo‘lishini ta’minlash maqsad qilingan.

Buning uchun tajribali professor-o‘qituvchilar ishtirokida o‘quv seminarlari tashkil etiladi. Zero, o‘quvchiga yangi tilni o‘rgatish uchun avvalo, o‘qituvchining o‘zi yangi bilim va metodikalarni egallashi kerak.

HAR BIR BOLA E’TIBORDA

Zamonaviy ta’limning muhim belgilaridan biri — hech bir bolani e’tibordan chetda qoldirmaslik.

Shu nuqtai nazardan **inklyuziv ta’limni rivojlantirish,** maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun zarur sharoit yaratish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

2026-yilda **216 ta maktabda inklyuziv sinflar** tashkil etilib, ularga 334 nafar alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchi qabul qilindi.

Shuningdek, **143 ta maktabda logoped shaxobchalari** tashkil etilib, ularga 8936 nafar o‘quvchi qamrab olindi.

Bu — ta’limda “hamma uchun bir xil yondashuv”dan “har bir bolaga individual yondashuv”ga o‘tish jarayoni kuchayib borayotganidan dalolat.

BILIM BILAN BIRGA TARBIYA HAM MUHIM

Maktabning vazifasi faqat bilim berish emas. Yosh avlodda Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat, mas’uliyat, mehnatsevarlik va jamiyat oldidagi burch tuyg‘usini shakllantirish ham ta’limning muhim vazifasidir.

Shuning uchun yangi o‘quv yilida o‘quvchilarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, ta’lim va tarbiya jarayonini milliy ruh va vatanparvarlik g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirishga alohida e’tibor qaratiladi. Bu vazifa faqat maktab ma’muriyati yoki sinf rahbari zimmasida emas. Unda ota-ona, mahalla, jamoatchilik va butun jamiyatning mas’uliyati bor.

MAKTABDAN TASHQARI VAQT — KATTA IMKONIYAT

Bolaning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish ham uning kelajagiga ta’sir qiladi. Shu maqsadda “Kelajak” platformasi orqali viloyatdagi 1263 ta umumta’lim maktabi va 55 ta nodavlat ta’lim muassasasi ro‘yxatdan o‘tkazildi. Ularda **4792 ta fan to‘garagi** tashkil qilinib, “Kambag‘al oila” reestriga kiritilgan oilalarning **21 087 nafar farzandi** to‘garaklarga jalb etildi.

Sport yo‘nalishida esa maktablarda **4632 ta sport to‘garagi** tashkil qilinib, ularga **81 263 nafar o‘quvchi** qamrab olindi.

2026-yilda o‘tkazilgan 28 ta sport musobaqasida **124 952 nafar o‘quvchi** ishtirok etgani ham yoshlarning jismoniy tarbiyasiga e’tibor kuchayganini ko‘rsatadi.

Bu jarayonda asosiy maqsad — bolani faqat dars vaqtida emas, uni bo‘sh vaqtida ham rivojlantirish.

KASBGA YO‘NALTIRISH — KELAJAKNI BUGUNDAN BELGILASH

Yangi o‘quv yilida ta’lim tizimi oldida turgan yana bir muhim vazifa — o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish. O‘tgan o‘quv yilida 96 ta maktabda 6697 nafar o‘quvchi uchun kasb-hunarga o‘qitish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Bu yo‘nalishni yanada rivojlantirish bugungi mehnat bozori talablari nuqtai nazaridan muhim. Zero, maktab bitiruvchisi “maktabni tugatdim, endi nima qilaman?” degan savol bilan emas, **“menda qaysi qobiliyat bor, qaysi kasbga mosman va jamiyatga qanday naf keltiraman?”** degan aniq maqsad bilan katta hayotga qadam qo‘yishi kerak.

2026-2027-o‘quv yilidan respublika miqyosida uzluksiz kasbga yo‘naltirish dasturlarini joriy etish belgilangani ham bu yo‘nalishning strategik ahamiyatini ko‘rsatadi.

“JASORAT MAKTABLARI” — INTIZOM VA VATANPARVARLIK MAKTABI

Bugungi kunda viloyatimizda 16 ta “Jasorat maktabi” faoliyat yuritmoqda. Yangi o‘quv yili qabuli uchun ushbu maktablarga **1 738 nafar o‘quvchi** ariza topshirdi. Bu ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni intizomlilik, matonat, jamoaviylik va Vatan himoyasiga tayyorlash bilan bir qatorda umumiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga ham e’tibor qaratiladi.

Bu kabi maktablarning ahamiyati shundaki, ular yoshlarga faqat bilim emas, **mas’uliyat hissini** ham singdirishga xizmat qiladi.

MAKTAB RAHBARI — NATIJANING ASOSIY TASHKILOTCHISI

Yangi o‘quv yilida ta’lim muassasalari rahbarlari oldida turgan vazifalar alohida ahamiyatga ega. Chunki yaxshi maktabni faqat yaxshi bino yoki ko‘p sonli o‘qituvchilar emas, avvalo, **to‘g‘ri boshqaruv** yaratadi.

Zamonaviy direktor — faqat ma’mur emas. U lider, tashkilotchi, tahlilchi, jamoa bilan ishlaydigan rahbar bo‘lishi kerak. U maktabdagi har bir o‘quvchining natijasi, pedagoglarning kasbiy o‘sishi, ota-onalar bilan hamkorlik, intizom, ta’lim sifati va muassasa muhiti uchun shaxsiy mas’uliyatni his qilishi lozim.

Shu bois ta’lim sifati past bo‘lgan **57 ta maktab** bilan manzilli ishlash, ular uchun aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish va oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish yangi o‘quv yilining muhim vazifalaridan biri sifatida belgilanmoqda.



Bu yerda asosiy maqsad kamchilikni tanqid qilish emas, **muammoli maktabni kuchli maktabga aylantirish** bo‘lishi kerak.

YANGI O‘QUV YILI — YANGI MAS’ULIYAT

Tizimda erishilgan natijalar salmoqli. Biroq har bir yutuq ortida yangi vazifa paydo bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim qamrovi oshgani — endi ta’lim sifatini yanada yaxshilashni taqozo etadi.

Pedagoglarning malakasi oshgani — endi bu bilimlarni dars jarayonida samarali qo‘llashni talab qiladi.

Oliy ta’limga kirish ko‘rsatkichi yaxshilangani — endi respublikada yetakchi o‘rinni egallash uchun yanada yuqori natijalarga intilish zarurligini ko‘rsatadi.

Xorijiy til sertifikatlariga ega pedagoglar ko‘paygani — endi o‘quvchilarning til bilish darajasini yanada oshirish vazifasini kun tartibiga qo‘yadi.

Yangi baholash tizimi joriy etilgani — endi har bir o‘quvchining individual natijasini tahlil qilishni taqozo etadi.

Demak, **islohotning eng muhim bosqichi — erishilgan natijani barqaror natijaga aylantirish**.

BOSH MAQSAD — RESPUBLIKADA YETAKCHI BO‘LISH

Samarqand azaldan ilm-fan, ma’rifat va ziyo maskani sifatida tanilgan.

Ulug‘ allomalar, mutafakkirlar va ma’rifatparvarlar kamol topgan bu zaminda ta’lim sohasidagi bugungi natijalar ham ana shu tarixiy an’analarga munosib bo‘lishi kerak.

Shu ma’noda Samarqand viloyatining oliy ta’limga kirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha respublikada yetakchi hududlardan biriga aylanishi emas, **birinchi o‘rinni egallashi** oldiga maqsad qilib qo‘yilgani bejiz emas.

Buning uchun imkoniyatlar bor. Eng katta imkoniyat — yurtimizda ta’limga yaratilayotgan shart-sharoitlar va Samarqandning o‘ziga xos ilmiy-ma’rifiy salohiyati.

Ammo imkoniyatning o‘zi yetarli emas. Uni natijaga aylantiradigan kuch — **ustozning mehnati, rahbarning mas’uliyati, ota-onaning e’tibori va jamiyatning ta’limga munosabati**.

Beshinchi “Ustozlar milliy forumi”da aytilayotgan fikrlarning barchasi bir nuqtada birlashadi: ta’limdagi islohotlarning markazida inson turibdi. Maktabning markazida o‘quvchi, o‘quvchining yonida ustoz. Ustozning ortida esa uni qo‘llab-quvvatlaydigan tizim bo‘lishi kerak.

Shundagina “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan g‘oya hayotiy mazmun kasb etadi.

Yangi o‘quv yili oldidan Samarqand ta’lim tizimi oldida katta maqsadlar turibdi. Bu maqsadlar faqat statistik ko‘rsatkichlarni yaxshilash emas.

Maqsad — **sifatli ta’lim olgan, mustaqil fikrlaydigan, kasb-hunar egallagan, xorijiy tillarni biladigan, raqamli texnologiyalardan foydalana oladigan, Vatanini sevib, uning taraqqiyoti uchun mas’uliyatni his qiladigan avlodni tarbiyalash**.

Sifatli ta’lim — shunchaki ta’lim tizimining maqsadi emas. U Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining mustahkam poydevoridir.

Rustam YO‘LDOSHEV,
viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i.



2025-2026-o‘quv yilida viloyat maktablari bitiruvchilarining qariyb 2 ming nafari milliy, 1,5 ming nafardan ortig‘i xalqaro sertifikatlarga ega bo‘ldi. Jumladan, 95 nafar bitiruvchi 5 tadan ortiq, 232 nafari 4 tadan, 794 nafari esa 3 tadan milliy sertifikatni qo‘lga kiritdi.

Germaniyaning Mannhaym shahrida dunyoning 60 dan ortiq mamlakatidan eng iqtidorli o‘quvchilar ishtirokida o‘tkazilgan Internationale Deutscholympiade (IDO) 2026 xalqaro nemis tili olimpiadasida Samarqand shahridagi 51-maktabning 9-sinf o‘quvchisi Marjona Ibadullayeva A2 darajasi bo‘yicha 1-o‘rinni egalladi.

Asosiy fan olimpiadasining respublika bosqichida viloyatimiz o‘quvchilari 3 ta oltin, 1 ta kumush va 3 ta bronza medalni qo‘lga kiritib, respublika bo‘yicha umumjamoa hisobida 3-o‘rinni egalladi.

“Turon” maktab teatri ko‘rik-tanlovining respublika bosqichida Samarqand shahridagi 80-maktab jamoasi, “Iqtidor” maktab ansambllari ko‘rik-tanlovida Kattaqo‘rg‘on shahridagi 14-maktab jamoasi, “Zakovat” intellektual o‘yinida Ishtixon tumanidagi 48-maktab jamoasi, “Yosh qutqaruvchi” sport musobaqasida Toyloq tumanidagi 17-maktab jamoasi 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

“Yosh kitobxon” tanlovida Paxtachi tumanidan Temur Faxriddinov hamda Narpay tumanidan Shahzoda O‘ktamova faxrli 2-o‘rinni egallab, har biri 75 million so‘mdan pul mukofoti bilan taqdirlandi.

“Yilning eng yaxshi o‘qituvchisi” ko‘rik-tanlovida ishtirok etgan Samarqand viloyatining 16 nafar o‘qituvchisi jami 576 million 800 ming so‘mlik pul mukofotini qo‘lga kiritdi.

Samarqand shahridagi 33-maktabning 11-sinf o‘quvchisi, 7 karra Osiyo chempioni Amaliya Mamedova Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

“Besh million sun’iy intellekt yetakchilari” milliy tanlovida viloyatdan 11 nafar o‘qituvchi va 23 nafar o‘quvchi turli rag‘batlantirishlarga sazovor bo‘ldi. 7 nafar o‘qituvchi 1000 dollardan pul mukofoti bilan taqdirlangan bo‘lsa, yana 3 nafariga qimmatbaho esdalik sovg‘alari topshirildi. 23 nafar o‘quvchi ham qimmatbaho esdalik sovg‘alari bilan rag‘batlantirildi.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida kechayotgan keng ko‘lamli islohotlar qatorida o‘quvchilar bilimini baholashning zamonaviy mexanizmi bosqichma-bosqich hayotga joriy etilmoqda. Bugungi kunda an’anaviy yod olishga asoslangan tizimdan voz kechib, o‘quvchining mantiqiy fikrlashi, amaliy ko‘nikmalarini yuzaga chiqaruvchi shaffof va adolatli yondashuvga o‘tish davr talabiga aylandi.

YANGI BAHOLASH USLUBI nega muhim?



Amaldagi baholash tizimi ko‘pincha o‘quvchining yangi mavzuni qanchalik yodda saqlab qolganini o‘lchab kelayotgan edi. Yangi baholash tizimi esa mazmun va yondashuv jihatidan tubdan farq qiladi.

Yangi tizimda asosiy e’tibor o‘quvchilarning savodxonlik, kompetensiya va shaxsiy sifatlariga qaratiladi. Endilikda baholash o‘qitish jarayonining so‘nggi nuqtasi emas, balki o‘quv jarayonining kulminatsiyasi hisoblanadi. Natijalarga ko‘ra, o‘qituvchi keyingi o‘quv maqsadlarini aniq belgilaydi va o‘z faoliyatini to‘g‘rilab boradi.

Yangi tizimda har bir dars, topshiriq va imtihon aniq mezonlarga asoslanadi. O‘quvchi fandan bir chorak davomida 30 dan 100 ballgacha to‘plashi talab etiladi:

- *50 ball — bob yoki bo‘lim bo‘yicha summativ baholash (BSB) orqali;*
- *40 ball — choraklik summativ baholash (ChSB) orqali;*
- *10 ball — kundalik formativ baholash (FB) orqali qo‘lga kiritiladi.*

Bunda o‘quvchining noto‘g‘ri fikrlari uzil-kesil rad etilmaydi, balki ular ham inobatga olinib, muayyan ballar beriladi. Bu esa bolaning darsda faol ishtirok etishiga va xatolari ustida mustaqil ishlashiga turtki beradi.

Maktab ta’limidagi bu kabi yangilanishlar nafaqat o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga undaydi, balki pedagoglarni ham vijdonan, raqobatbardosh ruhda ishlashga chorlaydi. Adolatli baholash va munosib rag‘bat uyg‘unlashgan joyda esa albatta yuksak sifat va natija bo‘ladi.

Yangi baholash tizimi 2022-2023-o‘quv yilida Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarda joriy etilgan edi. 2023-2024-o‘quv yilida esa ushbu maktablardan tashqari respublika bo‘yicha 500 ta, xususan, Samarqand viloyatida 68 ta umumta’lim maktabida tatbiq etildi.

2025-2026-o‘quv yilida viloyatda 200 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabi yangi baholash tizimiga to‘liq o‘tdi. Yangi o‘quv yilidan yana 83 ta maktab yangi baholash tizimiga o‘tkaziladi.

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR:

BILIM, IQTIDOR VA MAHORAT BIRLASHGAN MASKAN

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 14-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida”gi farmoni bilan boshlangan tarixiy islohotlar bugun Samarqandda o‘z mevasini bermoqda.



O‘sha yili viloyatda 15 ta ixtisoslashtirilgan maktab o‘z faoliyatini boshlagan bo‘lsa, bugungi kunga kelib Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimida 1 ta Prezident maktabi, 1 ta Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab Samarqand filiali, 1 ta muhandislik maktabi hamda tuman va shaharlarda 19 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlari faoliyat yuritmoqda. Ixtisoslashtirilgan maktablarga aynan iqtidorli, bilimli bolalarning tanlab olinayotgani va ularga mahoratli o‘qituvchilarning dars berayotgani ahamiyatlidir. Bugun nafaqat ota-onalar, balki o‘quvchilarning o‘zlari ham ixtisoslashtirilgan maktabda o‘qishga harakat qilyapti. Har yili bunday maktablarga kirish imtihonlarida talabgorlarning haddan ziyod ko‘pligi fikrimizning isbotidir.

Aslida ixtisoslashtirilgan maktablar rivojlangan mamlakatlar tajribasidan amaliyotga joriy etildi. Bugun bilimga chanqoq bolalar aynan shaharga qatnab o‘qishi shart emas. Har bir tuman (shahar)da ixtisoslashtirilgan maktab yoki maktab-internatlar bor. Ularda mehnat qilayotgan o‘qituvchilar ham uch bosqichli saralash imtihoni asosida tanlab olingan bo‘lib, har biri bolalarga mukammal bilim bera oladi.

Ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘quvchilarga tushlikkacha dars o‘tiladi, tushlikdan keyin qo‘shimcha darslar, to‘garaklar, sport mashg‘ulotlari tashkil qilinadi. Hatto uyga vazifani ham o‘quvchilar maktabda tayyorlashadi. Iqtidorli, a’lochi o‘quvchilarning bir maktabda o‘qishi va ularga bilimli va mahoratli o‘qituvchilarning dars berishi yaxshi samara beryapti.

Misol uchun, 2023-2024-o‘quv yilida o‘z faoliyatini boshlagan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning Samarqand filialida bugun 382 nafar o‘quvchi tahsil olmoqda. Bu yil maktabni 19 nafar o‘quvchi ilk bitiruvchi sifatida tamomladi.

E’tiborlisi, ularda 73 ta milliy sertifikat, 8 ta IELTS, 7 ta SAT sertifikatlari mavjud. Bitiruvchilarning 5 nafari barcha fanlardan sertifikat olgan.

Ushbu maktab bitiruvchilari dunyoning 22 dan ortiq TOP xorijiy universitetlariga qabul qilinib, jami 2 million 898 ming 400 AQSh dollari miqdoridagi grantlarni qo‘lga kiritdi.

Mazkur maktabning yutuqlari haqiqatda maqtovga loyiq. Bu yil maktab jamoasi STEM olimpiadasida 13 ta sovrinli o‘rinni qo‘lga kiritib, viloyatda birinchi o‘rinni egalladi. Shuningdek, o‘quvchilar xalqaro olimpiadalarda ham ishtirok etyapti. Masalan, Fariza Mirzayorova II ochiq xalqaro geografiya olimpiadasida bronza medaliga loyiq deb topildi.

Bundan tashqari, maktab o‘quvchilari “Raqamli avlod qizlari”, “Robo Coding”, “Ixtirochilikka qadam” va “Turon” teatr jamoalari tanlovlarida viloyat hamda respublika bosqichlarida yuqori natijalarga erishdi.

Tuman (shahar)lardagi ixtisoslashtirilgan maktablar ham yaxshi natija ko‘rsatyapti. Masalan, Samarqand shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati bitiruvchilarining hammasida kamida bitta milliy yoki xalqaro sertifikat mavjud. O‘quvchilar SAT sertifikati bo‘yicha 1520 balgacha, IELTS va CEFR dan 14 ta yuqori darajali sertifikatlar olishdi.

Ularning 4 nafari maksimal 189 ball bilan muddatidan oldin talaba bo‘ldi. Shuningdek, 9-sinf o‘quvchisi Habibabegim Mahmudova Italiyaning H-FARM International IB School maktabiga 100 foizlik grant yutib oldi.

Past Darg‘om tuman 2-son ixtisoslashtirilgan maktabining 12 nafar bitiruvchisidan 9 nafari maksimal 189 ball to‘pladi va muddatidan oldin talabalik baxtiga sazovor bo‘ldi. Bitiruvchilar tomonidan xorijiy universitetlarga 280 ming AQSh dollari miqdorida grant qo‘lga kiritildi. Shuningdek, o‘quvchilar WMI xalqaro matematika olimpiadasida 1 ta oltin va 2 ta kumush medalga loyiq deb topildi.

Urgut tuman ixtisoslashtirilgan maktabining barcha 11 nafar bitiruvchisi 189 ball bilan talabalikka tavsiya etildi. Xorijiy universitetlardan 260 ming AQSh dollari miqdorida grant olindi.

Kattaqo‘rg‘on shahar ixtisoslashtirilgan maktabi o‘quvchilari 477 ta, pedagoglari esa 51 ta milliy va xalqaro sertifikatlarni qo‘lga kiritdi. 4 nafar bitiruvchi 189 ball bilan muddatidan oldin talabalikka tavsiya etildi.

Bunday misollarni yana davom ettirish mumkin. Qolgan tumanlardagi ixtisoslashtirilgan maktablar ham yaxshi natijalarga erishmoqda. Maktab bitiruvchilarining deyarli barchasi fanlardan milliy va xalqaro sertifikatlarni qo‘lga kiritmoqda.

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng maktab ta’limida amalga oshirilgan islohotlardan biri ixtisoslashtirilgan maktablarning ochilishi bo‘ldi. Bunday maktablar tuman va shaharlarda yangidan qurildi, zamonaviy jihozlandi va o‘quv jarayoni xalqaro ta’lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan zamonaviy darsliklar asosida olib borilmoqda. Ixtisoslashtirilgan maktablarga kirish imtihonlari aniq va tabiiy fanlar, xorijiy tillar hamda mantiqiy fikrlash bo‘yicha bo‘lib, ushbu fanlar o‘quv jarayonida chuqurlashtirib o‘qitiladi. Maqsad o‘quvchilar nafaqat Vatanda, balki xorijda ham o‘qishini davom ettira olishi va mamlakat rivojiga hissa qo‘shadigan mutaxassislar bo‘lib yetishishiga zamin yaratishdir.

Xurshida ERNAZAROVA.

Bolani bog‘chaga berish tartibi:

INSON OMILISIZ, HALOL VA QULAY TIZIM



Avvallari farzandini bog‘chaga joylashtirish ota-onalar uchun qiyin kechardi. Turli idoralarga qatnash, uzun navbatlarda turish, hujjat yig‘ish kabi ishlar ko‘pchilikning dilini xira qilardi. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim muassasalariga qabul jarayoni to‘liq elektronlashgan. Eng muhimi, bu yerda inson omili umuman yo‘q.

HAMMASI XAVFSIZ VA OSON

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 319-sonli qaroriga muvofiq, qabul tizimi ota-onalar uchun maksimal darajada soddalashtirildi. Ma’muriy reglamentga kiritilgan o‘zgarishlar tufayli endi qimmatli vaqtingizni hujjat to‘plashga sarflamaysiz.

TIZIMNING ASOSIY AFZALLIKLARI VA QULAYLIKLARI:

- **Hujjatlarsiz ariza:** ariza topshirishda hech qanday qog‘oz hujjat ilova qilish talab etilmaydi. Bazada barcha kerakli ma’lumotlar allaqachon mavjud.
- **Qulay manbalar:** arizani Davlat xizmatlari markazi, tug‘ruq majmualari yoki uydan chiqmagan holda my.gov.uz portali orqali onlayn yuborish mumkin.
- **Yosh chegarasi:** bolalar 3 yoshdan 6 yoshgacha (maktabga chiqquniga qadar) bog‘chalarga qabul qilinadi.
- **Bir yo‘la 3 ta bog‘cha:** eng ajoyib imkoniyatlardan biri — bir vaqtning o‘zida mamlakatimiz hududidagi istalgan 3 tagacha maktabgacha ta’lim tashkilotiga navbatga qo‘yish mumkin. Bu tanlov imkoniyatini va bog‘chaga kirish ehtimolini bir necha barobar oshiradi.

NAVBAT KELDI, ENDI NIMA QILISH KERAK?

Ota-onalar onlayn navbatini uyda o‘tirib kuzatib boradi. Navbat kelganida esa telefon raqamiga SMS-xabar keladi.

SMS-xabarda nima bo‘ladi? Xabarda qaysi bog‘chaga navbat kelgani va 5 ta raqamdan iborat maxsus kod ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Agar ota-ona taklif qilingan bog‘chani ma’qul ko‘rsa, o‘sha MTT direktoriga uchrashib, telefoniga kelgan 5 xonali kodni aytadi. Bola rasman bog‘cha tarbiyalanuvchisiga aylanadi.

Furqat JIYANOV,
viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasining maktabgacha ta’lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish shu’basi boshlig‘i.

Меҳнат ва матонат билан безалган умр

Ҳаётда шундай инсонлар бўладики, уларнинг босиб ўтган умр йўли бир китоб, ҳаёт фалсафаси эса бутун бир авлод учун ибрат мактабига айланади. Тойлоқ тумани Катта Равот маҳалласида яшовчи, кўп йиллар халқ таълими тизимида ҳалол ва фидокорона меҳнат қилган устоз Матлуба Ибодуллаеванинг ҳаёт йўли ана шундай ибрат мактабига айланган, десак хато қилмаган бўламиз.



Муаллиманинг тақдирида меҳнат, машаққат, сабр ва шукроналик мужассам. У бутун умри давомида инсон қалбига эзгулик, маърифат ва меҳр уруғини қадашни ўзининг олий бурчи деб билди, шу ният билан яшаб келмоқда.

Матлуба Ибодуллаева 1952 йил 25 август куни Тойлоқ тумани Катта Равот қишлоғида туғилган. Болалигидан илмга чанқоқлиги, изланувчанлиги билан тенгдошларидан ажралиб турарди. Шунинг учун тумандаги 38-ўрта мактабни аъло баҳолар билан битиргач, устозларига ҳавас қилиб, ўзи ҳам муаллим бўлишни мақсад қилди. Шу ниятда Самарқанд давлат университетининг ўзбек филологияси факультетига ўқишга кирди. Ўқиш билан бирга тумандаги 97-умумтаълим мактабида ёшлар етакчиси сифатида иш бошлади. Кейинчалик бошланғич синф ўқитувчиси, она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси, маънавий-маърифий ишлар бўйича ҳамда ўқув ишлари бўйича директор ўринбосари каби вазифаларда самарали меҳнат қилди.

Қарийб қирқ йиллик педагогик фаолияти давомида у минглаб ўқувчиларга нафақат она тили ва адабиётдан сабоқ берди, балки уларни эзгулик ва инсонпарварлик руҳида тарбиялади. Унинг дарслари ўқувчилар учун оддий машғулот эмас, балки маънавият сабоғи эди. Ҳар бир мавзу ҳаётий мисоллар билан бойитилар, ҳар бир шеър ёки асар орқали инсон қалбига эзгулик уруғи қадаларди.

Матлуба Ибодуллаеванинг ўқувчилари республика фан олимпиадаларида иштирок этди, турли танлов ва мусобақаларда юқори натижаларга эришди. 2008 йилда 38 йиллик самарали меҳнат фаолиятидан сўнг нафақага чиққан бўлса-да, унинг устозлик мақоми ва жамоатчилик орасидаги обрўси ҳануз юксак қадрланади.

Инсоннинг ҳақиқий куч-қудрати қийинчиликлар олдида намоён бўлади. Матлуба опанинг ҳаётида ҳам оғир синовлар бўлди. 1974 йилда Ахтамжон Юнусов билан оила қуриб, беш нафар фарзанднинг меҳрибон онаси бўлди. Бироқ 1990 йилда турмуш ўртоғи вафот

Эъзоз

этиб, ҳаётнинг оғир зарбасига дуч келди. Икки ўғил, уч қизни вояга етказиш ёлғиз ўзининг гарданига тушди. Аммо матонати, оналик меҳри ва жасорати билан барча қийинчиликларни енгиб ўтди, фарзандларининг билимли, ҳалол ва юртга нафи тегадиган инсонлар бўлиб камолга етиши учун бутун ҳаётини бағишлади.

Матлуба опа ҳаётнинг ана шу оғир синовларини мардона енгиб ўтиб, бугун фарзандлари, набираларининг бахту камолини кўриб ҳаёт кечирмоқда, катта оиланинг бахтли онаси.

Ўғиллари Акмалжон ва Акрамжон тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланаётган бўлса, катта қизи Замира тиббиёт ходими бўлиб, эл саломатлиги йўлида меҳнат қилмоқда. Баҳора ва Дурдона олий таълим даргоҳларида ўқитувчилик қилишмоқда. Иккаласи ҳам филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент илмий унвонларига эришдилар.

Матлуба ая бугун нафақат фарзандлари учун меҳрибон она, балки Катта Равот маҳалласининг эъзозли онахони, оқила маслаҳатгўйидир. Бу оиладаги тотувлик, ҳалоллик ва осойишталик барча учун намуна ҳисобланади. Шу боис ўтган йил Матлуба Ибодуллаева "Ибратли оила" кўкрак нишони билан тақдирланди. Бу мукофот фақат бир инсоннинг эмас, балки меҳнат, матонат ва эзгу тарбияга бағишланган бутун бир ҳаёт йўлининг, матонат ва ибрат уйғун аҳил оиланинг эътирофидир.

Ғ.ҲАСАНОВ.

Хотира

Одамийлик – умр безаги

Инсон умрини йиллар билан эмас, элга қилган хизмати, орттирган дўстлари, тарбиялаган шогирдлари ва қолдирган яхши номи билан ўлчайдилар. Қадрдонимиз Лутфулла Мамасолиев ҳақида эслаганимизда ҳам доим шу фикр хаёлдан ўтади. Тўғри, у жуда қисқа умр кўрмади – ҳаётининг кексалик палласига энди қадам қўйган эди, аммо кексаликнинг гаштини суриш унга насиб қилмади. Кўнгилга таскин берадигани шу – олтмиш йиллик ҳаёти давомида у эзгу ишлар қилишга улгурди, ибратли фарзандларни камолга етказди, кўплаб шогирдлар тайёрлади, ўзидан яхши ном қолдирди.



Лутфулла Мамасолиев 1951 йил 24 август куни Пайариқ туманидаги Накурт қишлоғида дунёга келган. Унинг болалик ва ўсмирлик йиллари илмга чанқоқлик ва изланишлар билан ўтди. Қишлоқдаги саккиз йиллик мактабни битириб, Ғаллаорол туманидаги Гараша қишлоғида жойлашган 18- интернатда ўқиди. Ушбу мақола муаллифларидан бири у билан ана шу интернатда танишган. Очиққўнгил, киришимли, самимий табиати туфайли тезда дўстлашиб кетдик. Ўша йилларда мактабимизда билимли ва талабчан устозлар дарс бергани учун ҳам 66 нафар ўқувчидан 12 нафари мактабни аъло баҳолар билан тамомлаган эди.

Адабиётга меҳри баланд Лутфулла Самарқанд давлат университетининг ўзбек филологияси факультетига ўқишга кирди. Сўнг олий маълумотли мутахассис сифатида таълим, матбуот соҳаларида фаолият юритди. Дастлаб Самарқанд туманидаги мактабда ёшлар етакчиси, Самарқанд қишлоқ хўжалик институтида ўзбек тили ва адабиёти фани ўқитувчиси бўлиб ишлади. "Соғлом авлод учун" халқаро хайрия жамғармаси Жомбой тумани бўлимига раҳбарлик қилди.

Аммо унинг қалби матбуот билан ҳам чамбарчас боғлиқ эди. "Самарқанд" газетаси муҳаррири ўринбосари, "Ўзбекистон овози" газетасининг Самарқанд вилояти бўйича мухбири сифатида халқ ҳаётини ёритди, жойлардаги муаммо ва камчиликларни дадил қаламга олди. Унинг мақолаларида эл дарди, одамлар ташвиши, ҳаёт ҳақиқати акс этарди.

Лутфулла ака "Ҳаракатда бўлган, меҳнатдан қочмаган одам ютқазмайди", деган фикрни кўп такрорларди. Ўзи ҳам бутун умри давомида шу тамойилга амал қилди. Қайси вазифада ишламасин, одамлар билан самимий муносабат ўрнатди, кўплаб дўстлар орттирди, юзлаб шогирдларга устозлик қилди.

Жамоат ишларида ҳам фаол бўлган Лутфулла Мамасолиев 2005 йилдан Ўзбекистон Фидокорлар миллий-демократик партияси ижроия қўмитаси вилоят бўлими раиси, 2009 йилдан умрининг сўнгги кунларига қадар Ўзбекистон "Миллий тикланиш" демократик партияси вилоят кенгаши раиси ўринбосари вазифаларида самарали меҳнат қилди. У партия ғоя ва мақсадларини ёш авлодга мукаммал тарзда уқтирарди.

Унинг яна бир ибратли фазилати — одамийлиги эди. Ким билан суҳбатлашмасин, унга меҳр ва ҳурмат билан муносабатда бўларди. Эзгуликни сўзда эмас, амалда кўрсатарди.

Лутфулла Мамасолиев турмуш ўртоғи Моҳирахон билан бирга олти нафар фарзандни элга қўшди, уларга яхши тарбия берди. Айни пайтда улар турли соҳаларда меҳнат қилиб, ота-оналарига муносиб ворис сифатида эзгу ишларни амалга оширмоқдалар.

Бугун қадрдонимиз орамизда йўқ. Аммо яхши инсонларнинг умри уларнинг вафотидан сўнг ҳам фарзандлари, шогирдлари, дўстлари ва эзгу ишлари орқали давом этгани каби Лутфулла Мамасолиев ҳам қалбларда яшамоқда.

Облоқул УСМОНҚУЛОВ,
Ўктам ҚАРШИЕВ,
Раҳимжон НАИМОВ.

Тижоратдан маърифат излаб

Билим инсон тафаккурини кенгайтирса, тажриба ҳаётий кўникма ва мушоҳадалар орқали ҳаракат қилиш услубини шакллантиради. Бу ўз навбатида, инсондан мавжуд шароитга қараб, имкониятдан унумли фойдаланиш, ўз ҳаёт йўлини танлашни тақозо этади. Умр йўлини маърифат, тижорат ва маданият билан уйғунлаштириб, оиласи, маҳалла ва жамоатчилик олдида ўзига хос фазилатлари билан эътибор ва ҳурматга сазовор бўлган инсонлардан бири Толиб Маҳмудовдир. Ундаги иқтидор, маданиятга шайдолик ва ишбилармонлик тасодиф эмас. Самарқандда маъруфийлар сулоласида, аниқроғи, Маҳмудбек Маъруфий ва муаллима Тўхтабиби Раҳматовалар хонадонида дунёга келиб, камол топган Толиб Маҳмудов аждодлари анъаналарини давом эттириб келмоқда.



Болалигидан ҳаракатчан, ғайратли ва қобилиятли бўлган Толиб Маҳмудов отасидан ишбилармонлик ва раҳбарликни ўрганади. Шу билан бирга, оиладаги маърифат, маданият ва билимга бўлган эътибор унинг кейинги фаолиятига ҳам таъсир кўрсатади.

Меҳнат фаолияти ёшлигидан китоб билан боғланган Толиб Маҳмудов олий маълумотли бўлгач, фаолиятини ишбилармонлик ва тижорат билан боғлади. Шундай бўлса-да, тижоратдан маърифат ахтариб, ўзидаги инсоний фазилатларини юксалтиришга, тажриба ва кўникмаларини оширишга интилиб яшади. Саъй-ҳаракатлари сабаб тижорат ва тадбиркорлик соҳаларидаги масъулиятли вазифаларда, раҳбарлик лавозимларида ишлаб, ижобий натижаларга эришди.

Бугунги кунда тадбиркор ва ишбилармон сифатида танилган Толиб Маҳмудовнинг ишларини фарзандлари билан елкама-елка туриб, илм-фан, ишлаб чиқариш ва тадбиркорлик соҳаларида бирга олиб бормоқда.

Толиб Маҳмудовнинг инсоний фазилатларига назар ташлар экансиз, ундаги бағрикенглик, санъатсеварлик, ширинсўзлик, кишилар кўнглини топа олиш каби хислатларини англайсиз. Чунки ҳаётнинг паст-баландликлари, синовлари ва сабоқларидан тўғри хулоса чиқариб, ўз ҳаёт йўлини ибратли босиб ўтиш ҳар бир инсоннинг муҳим мақсадларидан бири. Бу мақсадга эришиш эса инсоннинг ҳаётда нима учун ва қандай яшаганига жавоб топиш имконини беради.

Толиб Маҳмудов билан суҳбатда бўлган ҳар қандай инсон унинг ҳозиржавоб ва ёқимли суҳбатдош эканлигини тез пайқайди. Шунинг учун бўлса керак, у қайси даврада бўлмасин, у ерда маърифат, маданият ва тижорат ҳақидаги суҳбатлар манфаатли ва ибратли тус олади. Санъатга шайдолиги уни машҳур санъаткор, созанда, шоир ва ёзувчилар билан тез-тез давра суҳбатлари, учрашувлар ташкил этишига сабаб бўлади.

Ҳусайн Воиз Кошифий ўзининг "Футувватномаи Султоний" асарида суҳбат ва суҳбатдошлар ҳақида шундай тавсия қилади: "Кишилар, дўстлар ва ошнолар билан дағаллик ва қўполлик билан эмас, балки хушрафторлик ва лутф ила сўзламоқ лозим." Толиб ака умри давомида ана шу тавсияга амал қилиб келади, бировнинг кўнглига озор бермасликка интилиб яшайди.

Инсон умрининг безаги яхшилик ҳисобланади. Бу рад этилмас ҳақиқатни англаган маъруфийлар хайрли ишларга камарбаста, оила, маҳалла ва эл-юртга садоқатлилик фазилатлари билан ҳурмат ва эҳтиромга эга сулолалардан биридир.

Сулоланинг ушбу анъаналарини шараф билан давом эттириб, халқимизнинг "Йўл каттадан, эргашиш эса кичикдан", деган мақолига амал қилиб келаётган Толиб Маҳмудов бугун фарзанд ва набираларига намуна бўлмоқда. Турмуш ўртоғи Хуршида Усмонова билан бунёд этган оила нафақат ўз фарзанд ва набираларига, балки барча ёш оилаларга ибратдир.

Эзгу ва хайрли ишларга камарбаста Толиб Маҳмудов фарзандларини ҳам миллий қадриятларга садоқат руҳида тарбиялаб, яратилган шароит ва имкониятлардан унумли фойдаланиб, тижорат борасида фаолиятини кенгайтириб, шукроналик ҳисси ила умргузаронлик қилиб келмоқда.

Савринисо НАРЗУЛЛАЕВА.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada ikki marta - chorshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Isxakova Maxfiratga (2006-yil 17-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-"B" uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Sattarov Ilxom Abdullayevichga (2002-yil 29-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Xasanova Xakimaga (1994-yil 30-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Ergashev Murtazokulga (2026-yil 25-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Yuldasheva Mexri Buranovnaga (2022-yil 10-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani O'rtashiq mahallasi.

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Yusupov Akram Tursunkulovichga (2026-yil 10-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Tuvalov Eshonkulga (2025-yil 9-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Pirmamatov Farxodga (2024-yil 24-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani O'rtashiq mahallasi.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Axmedova Dilorom Maxmudjonovnaga (2003-yil 16-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Uzbekov Lutfulloga (2020-yil 13-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Axtamov Anvar Akramovichga (2025-yil 13-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Sug'diyona maskani, 14/12-uy.

* * *

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasida marhum Turdiyev Maxmudga (1981-yil 9-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Narpay tumani Nog'oraxona mahallasi.

* * *

BEKOR QILINADI

Samarqand shahridagi "LET'S LEARN" nodavlat ta'lim muassasasining (STIR: 306336304) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

MAҲСУЛОТ САВДОДАН ЧАҚИРИЛМОҚДА!

"TEMIRXON AVTO LYUKS" оилавий корхонаси савдо дўкони орқали сотилган маҳсулот савдодан чақирилмоқда!

Маҳсулот номи: "ОП-1" русумдаги кукунли ўт ўчиргич
Модел тури: АВС синфи
Ишлаб чиқарувчи мамлакат номи: Хитой
Савдодан чақириш сабаби: ўт ўчиргич ўзининг иш кўрсатиш фаолиятига номувофиқлиги аниқланган
Маҳсулотни қайтариб олиш муддати: мазкур хабар эълон қилинган кундан бошлаб, икки ҳафта давомида
Хавфсизлик чоралари: маҳсулотдан фойдаланишни дарҳол тўхтатинг
Савдодан қайтариш тартиби: чақирилаётган маҳсулотларни қуйидаги манзилга қайтаришингиз мумкин: Самарқанд тумани "Янгиариқ" МФЙ ҳудудида жойлашган "Auto Mall Samarkand" МЧЖ эҳтиёт қисмлар бозори, 6-сектор, 9-дўкон. Қайтариш учун маҳсулотнинг харид чеки керак бўлади. Маҳсулот қиймати тўлиқ қайтарилади.
Алоқа учун телефон: +99891-553-44-44.
УШБУ ЭЪЛОННИ ЯҚИНЛАРИНГИЗГА ҲАМ ЕТКАЗИНГ.

Gazetaning navbatdagi soni 2026-yil 25-avgust, seshanba kuni chop etiladi.

MATBUOT UYI
Zarafshon
Самаркандский вестник

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi
Bosh muharrir: Farmon TOSHEV
Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 405 nusxada chop etildi. Buyurtma 323. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2
Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.
QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56
BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61
MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.
«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.
Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: G'.HASANOV.
Navbatchi: X.ERNAZAROVA.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X
Sotuvda narxi kelishilgan holda